

“TOM SOYERNING SARGUZASHTLARI” ASARIDA TARJIMA TRANSFORMATSIYALARINING “GAP BO’LAKLARI ALMASHTIRUVI” TURIDAN FOYDALANISH

Dobilova Diyora Yo‘lchi qizi, TerDU talabasi
+998948400549, diyoradobiliva453@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asar tarjima jarayonida tarjimonlik transformatsiyalaridan foydalanish va tarjima jarayonidagi muammolar hamda ularga yechim topish to‘g‘risida

Annotation: This article is about the use of translational transformations in the process of translating literary work and about finding a solution to them in the translation process.

Kalit so‘zlar: Tarjimonlik transformatsiyalari, badiiy asar, tarjima, tarjima jarayoni.

Key words: Translational transformations, literary work, translation, translation process

Tarjimonlik transformatsiyalari – bu tarjima jarayonida matn mazmunini, uslubini yoki tuzilishini asl nusxaga mos keladigan yoki maqsadli til (va madaniyat) talablari bilan uyg‘unlashtirish uchun o‘zgartirish usullari. Bular, asosan, tarjima qilingan matnning qabul qiluvchi auditoriya uchun tushunarli, mazmunan to‘g‘ri va uslubiy jihatdan muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun qo‘llaniladi.

Badiiy asar tarjimasida Tarjimonlik transformatsiyalarining eng ko‘p uchraydiganlaridan biri almashtiruv turlaridan “gap bo‘laklarini almashtirish” hisoblanadi. Mazkur tarjima turi hoh og‘zaki, hoh yozma Yarjima turidan qat’iy nazar barcha tarjima turida qo‘llaniladi. Gap bo‘laklarini almashtirganda asl matn so‘zlar va so‘z birikmalarini tarjima tilida boshqa sintaktik funksiyada qo‘llaniladi [1.B.23].

Masalan:

- Tom, are you joking? [2.B.70]
- Tom, bu hazilmi?

Ushbu gap so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “Tom, sen xazillashyapsanmi” degan ma’noni beradi. Ammo tarjima jarayonida gapning bo‘yoq dorligini oshirish maqsadida “Tom, bu xazilmi” misoli berilgan. Ushbu gapda joking- hazillashmoq, ya’ni ega - hazil ma’nosida qo‘llanilgan.

Yana boshqa misollar:

- He said with a nasty smile[2.B.51].
- U yoqimsiz holatda Tabassum bilan gapirdi.

Ushbu gapda nasty - jirkanch, yoqimsiz so‘zi asl matnda aniqlovchi vazifasida kelyapti va tarjima jarayonida qay holatda so‘rog‘iga javob bo‘lib hol vazifasini bajaradi va tarjima matnida hol bo‘lip keladi.

-Tom quickly took the pot with the paint.[2.B.5]

-Tom tezda bo‘yoqli idishni oldi

Ushbu gapda esa “with the paint” So‘z birikmasi “bo‘yoqli” ya’ni aniqlovchi vazifasini bajaryapti.

-The boys were sitting, hugging each other, wishing they could stop breathing.[2.B.18].

-Bolalar bir-birlarini quchoqlagan holda o‘tirishar va nafas olmay qolishni hohlashar edi.

Ushbu gapda qo‘srimcha kesim hugging tarjima jarayonida “qay holda” so‘rog‘iga javob bo‘ladi hamda, tarjima matnida hol vazifasini bajaradi.

-Joe had also decided to escape from his family. [2.B.26]

- Joning qarori oilasidan uzoqlashish edi.

Ushbu gapda esa asl matndagi “decided” qaror qilmoq so‘zi kesim vazifasini bajargan. Ammo tarjima matnida esa ega vazifasini bajargan. Va yana asl matnda “to escape” to‘ldiruvchi vazifasini bajargan bo‘lak tarjima matnida kesim vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida to‘g‘ri ma’no va muqobilika erishish uchun boshqa tarjima turlari qatorida “gap bo‘laklarini almashinuvi” ham muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, tarjimadagi bo‘yoqdorlikni oshirishda xizmat qiladi hamda o‘quvchiga asarni to‘g‘ri va tushunarli yo’sinda bo‘lishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allayorova R. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2008,
 - 2.The adventure of Tom Sawyer
 3. 4.Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8(30). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
 - 5.Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN’S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25
 - 6.Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPOONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
 7. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
 8. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.
 - 9.Oxford Advanced Learner’s Dictionary, 10th edition (app edition) Version 1.0.2374 . Copyright © Oxford University Press, 2024. All rights reserved.
- Web: www.oxfordlearnersdictionaries.comOxford Advanced Learner’s Dictionary, 10th edition © Oxford University Press, 2020